

**“AL-JOME’ AS-SAHIH” HADISLARIDA IJTIMOYIY ME’YORLARNING ENDOGEN
MEXANIZMLARI: SOTSIOLOGIK, FALSAFIY VA RATSIONAL TANLOV
YONDASHUVLARI INTEGRATSIYASI**

Akramov X.F. -

O'zbekiston Respublikasi

huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, sos.f.f.d (PhD)

Ijtimoiy fanlarda guruhlar va jamiyatlardagi xulq-atvorni boshqaruvchi norasmiy qoidalar — ijtimoiy me’yorlar keng o’rganilgan. K.Gers (1973) tomonidan turli madaniyatlardagi ijtimoiy me’yorlarning funksiyalari antropologik jihatdan tasvirlangan bo’lsa, E.Durkgeym (1895 [1982], 1950 [1957]), T.Parsons (1937), T.Parsons va E.Shils (1951), J.Coleman (1990), M.Gekter va K.-D.Opp (2001) kabi sotsiologlar me’yorlarning jamiyatdagi funksiyasi va insonlarning xatti-harakatlarini qanday rag’batlantirishi ustida chuqur tahlil olib borishgan. G.Akerlov (1976) va G.Yong (1998a) kabi iqtisodchilar esa me’yorlarga rioya qilish bozor xatti-harakatiga qanday ta’sir qilishini tadqiq qilishgan. So’nggi vaqtlarda huquqshunos olimlar R.Ellickson (1991), E.Pozner (2000) me’yorlarni yuridik qoidalarga alternativ samarali vosita sifatida targ’ib etmoqda.

Biroq, ko’pchilik ijtimoiy olimlar me’yorlarni ekzogen omil sifatida ko’rishadi. Ya’ni, ular inson xulqini cheklovchi tashqi vosita deb qaraladi. Bu yondashuvda axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me’yorlar o’rtasidagi farqlar, shuningdek, me’yorlar va kelishuvlar o’rtasidagi tafovutlar ko’pincha xiralashgan. Shu bois ko’proq e’tibor me’yorlarga amal qilinadigan shartlarga qaratilgan. Bu esa sanksiyalar muammosini ijtimoiy fanlar adabiyotining markaziga aylantirgan.

Bu nuqtai nazardan qaralganda, Imom al-Buxoriy “Al-Jome’ as-Sahih” asaridagi hadislar ijtimoiy me’yorlar tizimini shakllantiruvchi ichki vosita (endogen) sifatida ko’riladi. Ushbu hadislar jamiyatdagi axloqiy, diniy va huquqiy me’yorlarning negizini tashkil qiladi. Masalan, “Kim bizni aldasa, u bizdan emas” (Sahih al-Buxoriy) [1] hadisi — iqtisodiy munosabatlarda shaffoflik va halollikni me’yor sifatida mustahkamlovchi ijtimoiy me’yor bo’lib xizmat qiladi. Bu hadislar faqat axloqiy da’vat emas, balki normativ tartibga soluvchi mexanizm bo’lib ham ishlaydi.

J.Elster (1989a; 1989b) ta’kidlaganidek, me’yorlar faqat ijtimoiy funksiyalarni bajarayotgani uchungina mavjud bo’lmaydi. Ba’zi me’yorlar samarali bo’lmasa-da, ular baribir davom etaveradi. Bu fikrni Buxoriy hadislarida uchraydigan kam amal qilinadigan, ammo doimiy takrorlanadigan nasihatlar orqali ko’rish mumkin. Masalan, “Qiyomat kuni ikki kishining g’iybatini qilgan odam og’zidan olov chiqib turadi” [1] degan mazmundagi hadis g’iybatni cheklashga chaqiradi, lekin uning ijtimoiy amaliyotdagi samarasi har doim ijobiy emas.

Falsafa fanida esa D.Levis (1969), E.Ullmann-Margalit (1977), K.Bikcheri (2006) me’yorlar — insonlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar natijasida vujudga kelgan strategik o’yinlarning muvozanat nuqtasi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvga ko’ra, ijtimoiy me’yorlar kutilmalar va ishonchlar klasteri orqali barqaror bo’ladi. Bu esa “Al-Jome’ as-Sahih”dagi hadislarini sharhlashda muhim vosita hisoblanadi: hadislar faqat amr yoki man etuvchi matnlar emas, balki jamoa ongida shakllangan kutilmalar tizimi orqali me’yorlarni shakllantiruvchi mexanizmdir.

Shuningdek, norma, konvensiya va deskriptiv me’yor (ya’ni mavjud holatni ifodalovchi) o’rtasidagi tafovutni aniqlashda ham hadislar asosiy rol o’ynaydi. Masalan, “Musulmon musulmonning birodaridir” [1] kabi hadislar jamiyatda ijtimoiy birdamlikni me’yoriy asosda mustahkamlashga xizmat qiladi. “Al-Jome’ as-Sahih” hadislar to’plami ijtimoiy me’yorlarni shunchaki tashqi sanksiyalar tizimi emas, balki ichki ishonch, umumiy kutilmalar va axloqiy majburiyatlar asosida barqarorlikka erishuvchi normativ tizim sifatida taqdim etadi. Bu yondashuv, sotsiologiya va falsafaning yangi paradigmalari bilan uyg’unlashgan holda, islomiy ijtimoiy tartibni chuqur anglashga yo’l ochadi.

Ijtimoiy me’yorlar insonlar o’rtasidagi o’zaro ta’sirlarning rejalashtirilmagan, o’z-o’zidan shakllangan mahsuli hisoblanadi. Zamonaviy sotsiologik va falsafiy yondashuvlarda ular ijtimoiy muloqotning grammatikasi sifatida tasvirlanadi K.Bikcheri (2006). Ko’pgina olimlar ijtimoiy me’yorlarni inson xatti-harakatlaridagi takrorlanadigan namunalar bilan tenglashtirishadi K.Arrov

(1971), G.Akerlof (1976), yoki faqat normativ e'tiqod va kutilmalarga asoslanishadi D.Levis (1969), R.Sagden (2000). Ammo hadislar asosida olib borilgan tahlil bu ikki yondashuvning kompozitsion birligiga asoslanishini ko'rsatadi. Masalan, "Qiyomatda har bir inson amallari bilan tiriladi" degan hadis (Buxoriy) [1] nafaqat normativ e'tiqodni bildiradi, balki xatti-harakatlarga doimiy ta'sir etuvchi kutilmalarni mustahkamlaydi.

G.Akerlof (1976) tomonidan ishlab chiqilgan "yer egaligi tizimidagi normativ samaradorlik" g'oyasi hadislar bilan muvofiqlikda o'rganilishi mumkin. Misol uchun, "Ishchilarga terlari qurmasdan haqini bering" (Buxoriy) [1] hadisi mehnat munosabatlarida adolatli taqsimotni va ijtimoiy me'yorlar asosidagi xizmatlar evaziga daromad olish prinsipini mustahkamlaydi. Bu holat ijtimoiy me'yorlarning samaradorlik bilan bir qatorda mas'uliyatli javobgarlik mexanizmi orqali mustahkamlanishini anglatadi.

Bundan tashqari, G.Brennan va boshqalar (2013) [2] normani hisobdorlikka asoslangan tizim sifatida tasvirlaydi. Ko'plab tadqiqotlar, shuni ko'rsatildiki, me'yorlar qayta-qayta uchrashadigan, o'zaro ishonchga ega bo'lgan hamjihat guruhlarda paydo bo'ladi. Bu narsa "Al-Jome' as-Sahih"dagi hadislar misolida ochiq ko'rinadi: hadislar dastlab kichik jamoalarda shakllangan me'yorlarni mustahkamlab, so'ngra keng ummat doirasiga tarqalgan. Masalan, "Kim bir jamoani aldasa, u ulardan emas" degan hadis [1] savdo-sotiqdagi axloqiy mezonlarning ommalashuvi jarayonini tushuntiradi.

Shuningdek, zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiy me'yorlarning barham topishi yoki kutilmagan o'zgarishi kam o'rganilgan. K.Bikcheri (2006) bu borada qimmatli fikr bildiradi: me'yorlarning yo'qolishi uchun samarasizlik yetarli shart emas. Xususan, korrupsiya, ayollar yoki ozchiliklarga nisbatan kamsitish kabi normativ tizimlar jamiyatga katta zarar keltirsa-da, ular o'z-o'zidan barham topmaydi. Bu hadisliq manbalarda ham aks etadi: zulm yoki noto'g'ri odatlar haqida ogohlantiruvchi hadislar mavjud [1], lekin ularni yo'qotish uchun ichki islohot va jamoaviy ong zarur. Normativ me'yorlar, xususan, "Al-Jome' as-Sahih" asosida o'rganilganda, ular nafaqat xatti-harakatni tartibga soluvchi vosita, balki imon, ishonch, ijtimoiy birdamlik va shaxsiy mas'uliyatni uyg'otuvchi epistemik mexanizm sifatida tushuniladi. Shunday ekan, hadislar asosidagi me'yorlar nafaqat diniy, balki ijtimoiy va falsafiy tizimning markazida turadi.

Talkot Parsons [3] tomonidan ilgari surilgan ijtimoiylashtirilgan aktor nazariyasi ijtimoiy tartib va barqarorlikni tushuntirishda asosiy o'rin egallaydi. Unga ko'ra, inson xatti-harakati tanlovga asoslangan bo'lib, jamiyatdagi tartib umumiy qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Bunday tizimning mavjudligi me'yorlar orqali tartibga solinadi. Bu nazariya "Al-Jome' as-Sahih"dagi hadislar bilan bevosita uyg'unlashadi, chunki hadislar orqali jamiyatga xos qadriyatlar va normalar bolalikdan boshlab ongga singdiriladi. Parsons nazariyasiga ko'ra, odamlar umumiy qadriyatlar tizimini ichkilashtirib olganlari sababli, ular tashqi jazodan qo'rqmay turib ham me'yorlarga rioya qiladilar. Bu holat hadislar orqali ham mustahkamlangan. Masalan: "Taqvoning eng oliy darajasi – sen yolg'izlikda ham Allohdan qo'rqib, to'g'ri yo'ldan yurmog'indir." (Buxoriy) [1] Bu hadis normaning ichki motivga aylanishi (ya'ni, internalizatsiya) tamoyiliga to'la mos keladi. Parsons aytganidek, norma shaxsning o'z ehtiyojlarini belgilaydi, hadis esa bu ehtiyojni ilohiy javobgarlik bilan to'ldiradi. Parsons ta'kidlaganidek, agar norma ichkilashtirilgan bo'lsa, inson tashqi kutilmalarga bo'ysunmaydi. Biroq ijtimoiy psixologiyada bu nazariya har doim tasdiqlanmagan. R.La Pier (1934) va M.Fishben (1967) tajribalari ko'rsatganki, insonlarning e'tiqodlari va xatti-harakatlari ko'pincha farqlanadi. Bu holatni hadislar kontekstida ham ko'rish mumkin: "Qiyomat kuni Alloh odamlarning yuzlarini ikkiyuzliligi sababli qora qiladi." (Buxoriy) [1] Ya'ni, insonning ichki e'tiqodi bilan tashqi xulqi o'rtasidagi nomutanosiblik diniy jihatdan qoralangan.

Parsonsning nazariyasi normaning o'zgarishini sekin va faqat kuchli ijtimoiy ta'sirlar natijasida yuz beradi deb taxmin qiladi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar, jumladan G.Makkiy (1996) va D.Prentis hamda D.Miller (1993), me'yorlarning tez o'zgaruvchanligini ko'rsatdi. Shunga o'xshash holat hadislar tafsirida ham bor. Masalan, Payg'ambar (s.a.v.)ning ilgari ruxsat berilgan amallarni keyinchalik harom qilgan hadislar mavjud: "Men sizlarga ilgari ruxsat bergan narsalarimdan bugun qaytaraman..." (Buxoriy) [1] Bu esa ijtimoiy norma tezda sharoitga qarab o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Psixologik tadqiqotlar V.Vorner va M.DeFler (1969) shuni ko'rsatdiki, odamlar shaxsiy e'tiqodlariga emas, balki jamiyat ularning nima qilishi kerak deb o'ylashiga qarab ish tutadi. Bu farq hadislar kontekstida quyidagicha ifodalangan: "Insonlar menga nima deydi deb emas, Alloh nima deydi deb o'ylasin." (Buxoriy) [1] Bu hadis insonni shaxsiy e'tiqod orqali harakat qilishga da'vat qiladi, bu esa Parsons nazariyasidagi rolga asoslangan jamiyatga tanqidiy qarash bo'lishi mumkin. Parsonsning ijtimoiy me'yorlar haqidagi yondashuvi hadislar bilan ko'plab umumiyliklarga ega. Ayniqsa, normaning ichki motivga aylanishi, jamiyatdagi tartibning qadriyatlariga asoslangani, bola tarbiyasidagi rollar – bularning barchasi islomiy ijtimoiy epistemologiya bilan uyg'unlashadi. Biroq tajriba natijalari, yangi me'yorlarning tez shakllanishi, individual qarorlarning jamiyat kutganiga asoslanishi kabi jihatlari bu nazariyaning chegaralarini ham ochib beradi. Shunday ekan, Parsons nazariyasi hadislar asosida moral me'yorlarni tushuntirish uchun juda foydali, biroq barcha ijtimoiy me'yorlar uchun universal model emas.

Normaga muvofiqlikni tushuntiruvchi dastlabki ratsional tanlov modellari shuni ta'kidlagan ediki, normaga rioya qilish – bu shunchaki jazolardan qochish yoki maqtovgga erishish strategiyasidir R.Rommetveyt (1955), J.Tibot va G.Kelly (1959). Bunda jamiyat a'zolari tashqi rag'batlantirish — ijtimoiy sanksiyalar (maqtoy yoki tanbeh) asosida o'z xatti-harakatlarini moslashtiradilar. Ushbu yondashuvda normalar tashqi ijtimoiy bosimga bog'langan mexanik standartlar sifatida qaraladi R.Akselrod (1986) [4; 1095-1111], J.Coleman (1990). Ya'ni, norma mavjud bo'lishi uchun, unga rioya qilmaganlar jazolanishi zarur, degan talab mavjud.

Biroq, bu nuqtai nazar "Al-Jome' as-Sahih"dagi ko'plab hadislar bilan ziddiyatga kiradi. Masalan, Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: «Iymon yetmishdan ortiq bo'lakdir. Eng yuksagi "La ilaha illalloh" deyishdir, eng pastki darajasi esa yo'ldan ozorli narsani olib tashlashdir.» (Buxoriy, Kitobul-Imon) [5]. Bu yerda shuni ko'rish mumkinki, eng oddiy, tashqi jazoga bog'lanmagan harakat ham (yo'ldan tosh olib tashlash) din tomonidan norma sifatida targ'ib qilinmoqda va bu normaning motivi, asosan, ichki e'tiqodga (iymon) bog'liq.

Shunday qilib, faqat jazoga asoslangan yondashuv normaning mohiyatini to'liq qamrab olmaydi. Ba'zi normativ xatti-harakatlar hech qanday tashqi kuzatuv yo'qligida ham saqlanadi. Masalan, halollik, vijdon, hayo kabi qadriyatlar haqida Imom al-Buxoriyda ko'plab hadislar keltirilgan. Jumladan, Rasululloh (s.a.v.) dedilar: «Hayo – faqat yaxshilikka olib boradi» (Buxoriy, Kitobul-Adab) [6]. Bu degani, musulmon kishi o'zini doimo ichki tartibga, Allohga bo'lgan hisobot hissiga binoan nazorat qiladi.

Jazoni asosiy motivator deb biladigan modelning yana bir muammosi — "ikkinchi darajali jamoaviy foyda muammosi"dir. Ya'ni, qoidabuzarni jazolash foydalidir, lekin jazolovchi bu orqali o'zi zarar ko'radi va boshqalar ham jazolamasligi mumkin. Bu holat "metanormani" — ya'ni, jazolamaslikni jazolash me'yorini talab qiladi K.Akselrod (1986) [4]. Lekin bu yondashuv yangi normani emas, balki muammoning yangi bosqichdagi shaklini hosil qiladi. Al-Buxoriy hadislarida esa jazolash mexanizmi ikkilamchi o'rinda turadi. Normaga rioya qilish — bu Allohga itoat, bandaning halollik va poklik ruhidagi ichki motivatsiyasiga tayanadi. Masalan, bir hadisda aytiladi: «Alloh sizlardan biringiz bir amalni qilganida, uni puxta qilishingizni yaxshi ko'radi» [7]. Bu yondashuvda amalni bajarishdan maqsad – ma'naviy mukammallikdir, ijtimoiy jazodan qo'rqish emas.

Bundan tashqari, ratsional tanlov modeli qoidaga muvofiqlikni doimiy hisob-kitob asosida bajariladigan xatti-harakat sifatida talqin qiladi. Ammo hadislar ko'rsatadiki, norma — bu odatga aylangan ruhiy holat. Ko'plab sahobalarning hayotida ko'rish mumkinki, ular jazodan yoki maqtovdan qat'i nazar, o'z halolliklari va iymonlari asosida ish tutganlar. "Al-Jome' as-Sahih"dagi ko'plab hadislar ijtimoiy normalarning ichki iymon, axloqiy qadriyatlar, halollik va Allohga bo'lgan javobgarlik asosida shakllanishini va doimiydashishini ko'rsatadi. Bu esa ichki motivatsiya — "ruhiy sanksiya" asosidagi yondashuvning afzalligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-jome' as-sahih [Matn] / tarj. va sharh. Abdulaziz Mansur. — Toshkent: Hilol nashr, 2019. — J. 4. — B. 288. — Hadis №2118. 2019. — J. 8. — B. 98. — Hadis №6072; J. 1. — B. 98. — Hadis №244. 2019. — J. 8. — B. 24. — Hadis №6065. 2019. — J. 8. — B. 305. — Hadis №6538. 2019. — J. 3. — B. 90. — Hadis №2227. 2019. — J. 1. — B. 75. — Hadis №52. 2019. — J. 8. — B. 390. — Hadis №7179. 2019. — J. 3. — B. 201. — Hadis №1276.
2. Brennan G., Eriksson L., Goodin R.E., Southwood N. Explaining Norms [Text] / G. Brennan et al. — Oxford: Oxford University Press, 2013.
3. Парсонс Т. О системе современных обществ. — М.: Аспект Пресс, 1998. — 272 с.
4. Axelrod R. An evolutionary approach to norms [Text] // American Political Science Review. — 1986. — Vol. 80(4). — P. 1095–1111.
5. Бухорий, Абу Абдуллоҳ. Ал-Жомеъ ас-Саҳиҳ [Матн]. — К.: Дорул-Ҳадис, 2005. — Китобул-Иймон, ҳадис №9.
6. Бухорий, Абу Абдуллоҳ. Ал-Жомеъ ас-Саҳиҳ [Матн]. — К.: Дорул-Ҳадис, 2005. — Китобул-Адаб, ҳадис №6117.
7. Табарони, Абу Қосим Сулеймон ибн Аҳмад. Ал-Муъжам ал-Аусат [Матн]. — Бейрут: Дор ал-Кутуб ал-Илмия, 1995. — Ж. 6. — С. 361, ҳадис № 5890.

REZYUME:

Ushbu maqolada ijtimoiy me'yorlarning shakllanishi va barqarorlashuvi masalasi sotsiologik, falsafiy va iqtisodiy nazariyalar kontekstida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy me'yorlar, normativ tizim, endogen mexanizm, ichki motivatsiya, sanksiyalar.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются процессы формирования и устойчивости социальных норм в контексте социологических, философских и экономических теорий.

Ключевые слова: социальные нормы, нормативная система, эндогенные механизмы, внутренняя мотивация, социальные санкции.

RESUME:

This article examines the formation and persistence of social norms through sociological, philosophical, and economic perspectives.

Keywords: social norms, normative systems, endogenous mechanisms, internal motivation, social sanctions.